



## Analysis of the legal foundations for corruption prevention activities in internal affairs bodies

Khusniddin AZIZOV<sup>1</sup>

Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan

### ARTICLE INFO

**Article history:**

Received January 2025

Received in revised form

15 January 2025

Accepted 25 February 2025

Available online

25 March 2025

**Keywords:**

corruption,  
law enforcement agencies,  
legal foundations,  
state policy,  
anti-corruption efforts,  
legislation,  
National Strategy,  
international experience.

### ABSTRACT

This article analyzes the legal foundations of anti-corruption activities within the internal affairs bodies of the Republic of Uzbekistan. It examines the laws, international standards, and national programs adopted to enhance the fight against corruption in the country, highlighting the role of internal affairs bodies in this process. The article also discusses the legal mechanisms for combating corruption and their alignment with state policy and international best practices. Furthermore, it emphasizes the importance of the National Strategy for Combating Corruption until 2030, which has been adopted to guide these efforts.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss2/S-pp201-209>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Ichki ishlar organlarida korrupsiyani oldini olish faoliyatining huquqiy asoslari tahlili

### ANNOTATSIYA

**Kalit soʻzlar:**

korrupsiya,  
ichki ishlar organlari,  
huquqiy asoslar,  
davlat siyosati,  
korrupsiyaga qarshi kurash,  
qonunchilik,  
Milliy strategiya,  
xalqaro tajriba.

Ushbu maqolada Oʻzbekiston Respublikasida ichki ishlar organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatining huquqiy asoslari tahlil qilingan. Mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashni takomillashtirish borasida qabul qilingan qonunlar, xalqaro meʼyorlar va milliy dasturlar tahlil etilib, ichki ishlar organlarining bu jarayondagi roli koʻrsatilgan. Shuningdek, korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlari, davlat siyosati va xalqaro tajriba bilan uygʻunlashuvi haqida fikr yuritilgan. Maqolada korrupsiyaga qarshi kurashish boʻyicha qabul qilingan 2030-yilgacha moʻljallangan Milliy strategiyaning ahamiyati taʼkidlangan.

<sup>1</sup> Doctor of Law (PhD), Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan.

# Анализ правовых основ деятельности по предотвращению коррупции в органах внутренних дел

## АННОТАЦИЯ

### Ключевые слова:

коррупция,  
органы внутренних дел,  
правовые основы,  
государственная  
политика,  
борьба с коррупцией,  
законодательство,  
Национальная стратегия,  
международный опыт.

В данной статье анализируются правовые основы деятельности по борьбе с коррупцией в органах внутренних дел Республики Узбекистан. Рассматриваются принятые законы, международные нормы и национальные программы, направленные на совершенствование антикоррупционной борьбы, а также роль органов внутренних дел в этом процессе. Особое внимание уделено правовым механизмам противодействия коррупции, государственной политике и ее интеграции с международным опытом. В статье подчеркивается значение Национальной стратегии по борьбе с коррупцией, рассчитанной до 2030 года.

Mamlakatda olib borilayotgan islohotlar va davlatni jadal taraqqiyot bosqichiga olib chiqishdagi sa'y-harakatlar korrupsiyaga qarshi kurashishni kun tartibidagi ustuvor masalalardan biriga aylantirdi. Yangi O'zbekiston strategiyasi korrupsiyadan xoli mamlakat barpo etishni nazarda tutadi. "So'nggi yillarda tub islohotlar davriga qadam qo'ygan O'zbekistonda ham taraqqiyot kushandasi bo'lgan illat – korrupsiyaga qarshi izchil kurash olib borilmoqda. Ushbu kurash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi" [1].

Ichki ishlar organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatining huquqiy asoslarini O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"[2]gi Qonuniga asoslanib quyidagi tizimga ajratilib o'rganilishini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- 1) O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi;
- 2) O'zbekiston Respublikasining qonunlari;
- 3) O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;
- 4) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari;
- 5) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- 6) vazirliklar va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari;
- 7) mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyaning tegishli normalarida ichki ishlar organlarida korrupsiyaga qarshi kurashishning konseptual asoslari belgilangan. Xususan, Konstitusiyaning 2-moddasida belgilangan davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qilishi, davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'ulligi to'g'risidagi qoida ichki ishlar organlari mansabdor shaxslarining xalq oldidagi mas'ulligini ta'minlash hamda davlat boshqaruvida byurokratik elementlarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Shuningdek, 14-moddada davlat o'z faoliyatini inson farovonligini va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida qonuniylik, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari asosida amalga oshirishi [3] to'g'risidagi norma ham ichki ishlar organlarida korrupsiyaga qarshi kurashishda muhim o'rin tutadi.

Bundan tashqari mamlakatimiz Konstitusiyasida korrupsiyaga qarshi kurashuvchi sub'ektlarning konstitusiyaviy-huquqiy maqomi belgilangan. Xususan, jamoat birlashmalari, ommaviy axborot vositalari, parlament, prezident, hukumat, sudlar, prokuratura hamda huquqni muhofaza qiluvchi boshqa organlar va mahalliy davlat hokimiyati organlariga oid normalar belgilangan.

Shu bilan birga Konstitutsiya korrupsiyaga qarshi kurashishda xalqaro va milliy qonun hujjatlarini bog'lab turadi.

O'tgan davr mobaynida korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan mustahkam huquqiy baza shakllantirildi. Respublikamizda BMT homiyligida qabul qilingan EKOSOS (BMTning iqtisodiy va ijtimoiy kengashi)ning Korrupsiyaga qarshi kurash rezolyusiyasi (1995), Davlat mansabdor shaxslarining xalqaro axloq kodeksi (1996), Xalqaro tijorat tashkilotlarida korrupsiya va poraxo'rlikka qarshi kurash haqidagi deklaratsiya (1997), Millatlararo uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash konvensiyasi (2000) va boshqa xalqaro hujjatlarning qabul qilingani mazkur illatga qarshi kurashda muhim omil vazifasini o'tamoqda.

Shuningdek, davlatimiz 2010-yil mart oyida Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti doirasida qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi kurashning Istanbul rejasiga (2003-yil 10-sentyabr) qo'shilgan.

Oliy Majlis tomonidan esa Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha Yevroosiyo guruhi to'g'risidagi bitimi (Moskva, 2011-yil 16-iyun) 2011-yil 13-dekabrda ratifikatsiya qilindi.

BMT oldida turgan eng global muammolardan biri sanalgan korrupsiyaga qarshi kurashishning davlatlar o'rtasida muvofiqlashtirilgan dasturlari va boshqa huquqiy me'yorlari ishlab chiqilgan. Xususan, 2005-yil dekabr oyida kuchga kirgan "Korrupsiyaga qarshi Konvensiya" keng doirada qabul qilingan xalqaro huquqiy hujjat bo'lib, uning loyihasi ikki yil davomida 130 dan ortiq davlat ishtirokida muhokama etilgan. Unda korrupsiyaga qarshi xalqaro va milliy kurash amaliyotini yo'lga qo'yish hamda ularni amalga oshirish mexanizmlari belgilangan.

Korrupsiyaga qarshi kurashishni jahon talablari asosida shakllantirish maqsadida, 2008-yil 7-iyulda mamlakatimiz BMTning "Korrupsiyaga qarshi (Nyu-York, 2003-yil 31-oktyabr) Konvensiyasi"ni ratifikatsiya qildi va shu yili "Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga O'zbekiston Respublikasi qo'shilishi to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Ushbu Konvensiya talablari korrupsiyaga oid milliy qonunchilikni yana bir bor tahlil etish, zarur huquqiy normalarni qabul qilish va shu orqali korrupsiyaga qarshi kurash samaradorligini oshirishni nazarda tutadi.

Shuningdek, ushbu qonunga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati va Adliya vazirligi korrupsiyaning oldini olish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirishda boshqa ishtirokchi davlatlarga yordam ko'rsatishi mumkin bo'lgan organlar sifatida belgilandi.

Eng muhimi mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida 2017-yil 3-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi [4] Qonuni qabul qilindi. Ushbu qonun bilan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari hamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlar va ularning vakolatlari belgilab berildi. E'tiborli jihati mazkur Qonun bilan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni bevosita amalga oshiruvchi davlat organlari qatoriga kiritilishi hamda uning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida quyidagi:

✓ korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi;

- ✓ korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlar bo'yicha tezkor-qidiruv faoliyatini, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni va dastlabki tergovni amalga oshirishi;
- ✓ korrupsiyaning holati va korrupsiyaga qarshi kurashish natijalari to'g'risidagi axborotni yig'adi hamda tahlil qiladi, tegishli davlat organlariga zarur axborotni taqdim etishi;
- ✓ jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya faktlariga doir murojaatlarini ko'rib chiqadi hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralari ko'rishini;
- ✓ aholi o'rtasida jamiyatda huquqiy ongini, huquqiy madaniyatni yuksaltirishga va qonuniylikni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy targ'ibotga doir faoliyatda ishtirok etishi;
- ✓ korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to'g'risidagi statistika ma'lumotlarining hisobi yuritilishini va tahlil qilinishini ta'minlashi;
- ✓ korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning o'z vaqtida oldi olinishini, aniqlanishini va ularga chek qo'yilishini ta'minlashga, ularning oqibatlarini, shuningdek ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir tadbirlarni ishlab chiqishi hamda amalga oshirishi;
- ✓ korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi boshqa organlar hamda tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi;
- ✓ korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshirishi [5] ga doir vaktolatlari belgilab berilganligi bilan muhim hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarining izchilligini ta'minlash maqsadida har 2 yilga ( 2017-2018 [6], 2019-2020 [7], 2021-2022 [8], 2023-2024 [9]) mo'ljallangan davlat dasturlarini qabul qilish amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Qonun va Davlat dasturlarida korrupsiya uchun mansabdorlarning shaxsiy javobgarligi, davlat tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi muvofiqlik tizimi (komplaens nazorati)ni joriy etish, jiddiy va o'ta og'ir korrupsiya jinoyatlarida ayblanganlarni muddatidan oldin ozod qilish imkoniyatini istisno qilish (amnistiya qo'llamaslik), xabar berish ni rag'batlantirish va himoya qilish tizimini joriy etish kabi yangi dastaklar kiritildi.

O'rganishimiz shuni ko'rsatdiki, mazkur dasturlarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tashkiliy choralar, tadqiqotlar o'tkazish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash, korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha xalqaro hamkorlik, korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish, davlat xaridlari sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirish va manfaatlar to'qnashuvining oldini olish, korrupsiyaga qarshi kurashish tuzilmalari faoliyatini takomillashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro standartlarni joriy qilish va davlat organlari faoliyati ochiqligini ta'minlash, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini amalga oshirish yuzasidan 130 ta turli chora-tadbirlar belgilangani o'ta ahamiyatli bo'lib, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishning yaxlit tizimi yaratilganini ko'rsatadi.



Poraxo'rlik jinoyatlari korrupsiya jinoyatchiligining asosini tashkil etadi. Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 25-dekabrda "Tezkor-qidiruv faoliyati to'g'risida"gi qonuni korrupsiyaga qarshi kurashda va ayniqsa uning xavfli ko'rinishlaridan bo'lgan poraxo'rlikni fosh etishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi [10].

O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori Akmal Burxonovning ta'kidlashicha, agentlik tomonidan o'tkazilgan o'rganishlarda davlat xizmatida minglab manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yganlik holatlari aniqlangan, ammo huquqiy asos yoki javobgarlik belgilanmagani sababli ularni bartaraf etishda qiyinchiliklar mavjud bo'lgan [11].

O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"[12]gi Qonunining qabul qilinishi bilan manfaatlar to'qnashuvini tartibga solishning aniq tartibi belgilandi. Eng muhimi, mazkur hujjat bilan manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash va bunday vaziyatning profilaktikasiga qaratilgan ikki turi, ya'ni xabarnoma va deklaratsiya berish mexanizmlari mustahkamlab qo'yildi.

Birinchi, xodim bevosita rahbariga, rahbarlar esa korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalarga yoki kadrlar bo'linmalariga xabar berib, ushbu manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish choralari ko'radi. Ya'ni, bunda xodim o'zi uchrab turgan mavjud manfaatlar to'qnashuvi vaziyatini tartibga soladi.

Ikkinchi, korrupsiyaga qarshi kurashish bo'linmalari yoki kadrlar bo'linmalari manfaatlar to'qnashuvini aniqlaydi. Bunda xodimda kelajakda vujudga kelishi mumkin bo'lgan ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvi aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Narbaeva manfaatlar to'qnashuvi davlat organlaridagi korrupsiyaviy holatlarni aniqlash va unga qarshi kurashish boshlang'ich nuqtasi ekani, Qonun bilan korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishidagi qonunchilikda manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq bo'shliqlar yopilmoqda, bu yo'nalishni qonunan tartibga soluvchi aniq mexanizmlar belgilanmoqda. Manfaatlar to'qnashuvining huquqiy oqibatlari belgilanmoqda, ya'ni bunday holatda qabul qilingan qarorlar va tuzilgan bitimlar sud hukmi orqali bekor qilinishi mustahkamlanmoqda [13] degan fikrlarini bildirganligini ko'rishimiz mumkin.

Ichki ishlar organlari tizimida xizmat qilayotgan barcha xodimlarning umumiy dunyoqarashi, siyosiy ongi, ma'naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularda vatanparvarlik, g'urur, iftixor, kasbiga nisbatan sadoqat va yuqori mas'uliyat hislarini oshirish bilan bog'liq vazifalarni belgilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi PQ-5050-sonli qarori bilan "Ichki ishlar organlarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish konsepsiyasi" tasdiqlangani [14] bejiz emas.

Ayrim mualliflar ichki ishlar organlari xodimlariga asosiy faoliyatini nafaqat ijodiy, ilmiy va pedagogik faoliyat bilan, balki tadbirkorlik faoliyati bilan ham birlashtirishga ruxsat berishni taklif qilmoqdalar [15]. Bu, bizning fikrimizcha, qabul qilinishi mumkin emas. Davlat o'z xodimlarini tadbirkorlik bilan shug'ullanishga majburlamaslik, zarur yordam ko'rsatish choralari ko'rishi kerak. Bu borada davlat ichki ishlar organlari xodimlarining munosib haq to'lanishini ta'minlashi, ularni o'z mansab vakolatlaridan shaxsiy manfaat yo'lida foydalanishga undamasligi kerak, deb yozadi A. Varigin [16].

Dastlab, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 6-martdagi "Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish taqiqlangan mansabdor shaxslarning ro'yxati to'g'risida"gi 103-son qarorida davlat boshqaruv organlari xodimlari, davlat banki rahbarlari tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi taqiqlangan.

Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotining (OESR) 2019-yilda O'zbekistonni 4-raund monitoringi natijalari bo'yicha e'lon qilingan hisobotida [17] O'zbekistonga noqonuniy boylik orttirganlik uchun jinoiy javobgarlikni belgilash tavsiya etilgan edi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi PQ-5177-son qarorining 2-bandida [18] davlat xizmatchilari tomonidan tadbirkorlik faoliyatida ishtirok etganligining huquqiy oqibatlarini belgilashni nazarda tutuvchi qonun loyihasini ishlab chiqish bo'yicha topshiriq berilgan edi.

Shundan so'ng, 2022-yil 8-avgust kuni kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonunining 13-moddasida davlat fuqarolik xizmatchisi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishga haqli emasligi haqidagi qoida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi [19] Qonunning 4-moddasiga binoan, davlat organlarining mansabdor shaxslari, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi qonunchilikda man etilgan boshqa shaxslar tadbirkorlik sub'ektlari bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi "Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo'naltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan "Ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy madaniyat va xizmat intizomi kodeksi"ning 12-bandida "Xodimlarga tadbirkorlik faoliyati sub'ekti sifatida yoki uning nomidan bu sohada qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan faoliyat bilan shug'ullanishi taqiqlanadi.

Xodimlarga tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarini tashkil etishga, ularning muassisi (ishtirokchisi) bo'lishga, tadbirkorlik faoliyati sub'ektida tashkiliy-boshqaruv, ma'muriy-xo'jalik vazifalarini bajarishga ruxsat berilmaydi, bundan aksiyadorlik jamiyatlarining erkin muomalada bo'lgan aksiyalariga qonunchilikda belgilangan talablar doirasida egalik qilish hollari mustasno" [20].

Davlat xizmatchisi, xalq ahvolini so'rash va huquqini himoya qilish martabasiga ega bo'lgan inson o'z xizmat burchidan boshqa faoliyatga boshini suqmaydi. Bu ichki ishlar organlari faoliyati samaradorligini oshirishga raxna soladi. Xodim o'z xizmat vazifasidan chalg'iydi.

Qonunchilik talablariga hududlardagi davlat xizmatchilari tomonidan rioya etilishi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan tizimli ravishda o'rganib kelinmoqda. Jumladan, 2022-yil davomida Surxondaryo, Qashqadaryo, Navoiy, Buxoro, Samarqand, Jizzax, Sirdaryo, Xorazm, Namangan, Farg'ona va Andijon viloyatlarida ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanib kelinayotganligi holatlari joyiga chiqqan holda o'rganilgan.

Demak, kodeksda belgilanganidek, tadbirkorlik yoki haq to'lanadigan boshqa faoliyat bilan bevosita yoki uchinchi shaxslar orqali shug'ullanmaslik kerak. Faqat qonunchilikda belgilangan holatlar bundan mustasno bo'lib, ilmiy, pedagogik va ijodiy faoliyat faqat asosiy ishdan bo'sh vaqtda amalga oshirilishi hamda xizmat vazifalarini o'z vaqtida va to'laqonli bajarishga zarar yetkazmasligi kerak.

Tadbirkorlik yoki haq to'lanadigan boshqa faoliyat bilan bevosita yoki uchinchi shaxslar orqali shug'ullanmaslik kerak, degan muayyan taqiq o'rnatilgan bo'lsada, uning huquqiy oqibatlari qanday bo'lishi kerak, ya'ni mavjud taqiq buzilgan sharoitda uni

buzgan xodimlarga qanday javobgarlik choralari qo'llanishi aniq emas. Demak, bu taqiqni buzgan shaxslarga qo'llaniladigan javobgarlik choralari ham aniq qilib belgilab qo'yilishi kerak.

Shu o'rinda ayrim xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida (Rossiya, Belorussiya, Gruziya, Estoniya, Qozog'iston) [21] mazkur turdagi cheklovlarga amal qilmaganlik yuzasidan javobgarliklar mavjud.

Dunyoning 93 mamlakatida, xususan Avstraliya, Buyuk Britaniya, Misr Arab Respublikasi, Singapur, Shveysariya, Fransiya, Hindiston, Xitoy Xalq Respublikasi singari davlatlarda noqonuniy boylik orttirish, o'z daromadlarining qonuniy manbasini asoslay olmaslik uchun javobgarlik ko'zda tutilgan. Misol uchun, Fransiya JK 321-6-moddasida [22], XXR jinoyat qonunining 395-moddasida [23], Argentina JK 268-moddasida [24], Misr Arab Respublikasining Noqonuniy daromadlar haqida Aktida (The Illicit Gains Act 1975) [25] bunday qilmishlarning jinoiy jazolanishi belgilangan.

BMT Korrupsiyaga qarshi konvensiyasining 20-moddasi "Noqonuniy tarzda boylik orttirilishi" [26] deb nomlanadi. Unga ko'ra noqonuniy boylik orttirish korrupsiyaviy jinoyat sifatida ko'rsatib o'tilgan. Mazkur moddada har bir ishtirokchi Davlat, o'z konstitusiyasi va huquqiy tizimining eng muhim prinsiplariga rioya qilish shartida, noqonuniy tarzda boylik orttirishni, ya'ni ommaviy mansabdor shaxs aktivlari uning qonuniy daromadlaridan oqilona asoslanib berila olmaydigan darajada oshib ketishini, qachonki ular atayin sodir etilganda, buni jinoiy javobgarlikka tortiladigan harakat sifatida e'tirof uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan qonuniy va boshqa choralarni ko'rish imkoniyatini ko'rib chiqadi.

Ushbu Konvensiya qoidalarini tatbiq etish bo'yicha kuzatuvlar noqonuniy boylik orttirishni jinoiy jazolanadigan qilmish deb tan olish ommaviy mansabdor shaxslar o'rtasida korrupsiyani tiyib turishning ta'sirchan omili ekanligini ko'rsatdi [27].

Biroq ijtimoiy hayot shiddat bilan o'zgarmoqda. Bu korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini takomillashtirishni taqozo etadi. O'tgan yillar mobaynida korrupsiyaga qarshi kurashishning milliy huquqiy tizimi shakllantirildi. Shu bilan birga "Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi, "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi hamda "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunlarning qabul qilinganiga ham 6-10 yil o'tdi. Mazkur qonunlarni yangi tahrirda qabul qilish vaqti keldi.

2023-2024-yilda O'zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi rahbarligida "O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2030-yilgacha mo'ljallangan Milliy strategiyasi" loyihasi ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2030-yilgacha mo'ljallangan Milliy strategiyasi birinchidan, ichki ishlar organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish masalasida shu kunga qadar nimaga erishildi va yana nima qilish kerak, degan savolning javobini oydinlashtiradi; ikkinchidan, 2024-2030-yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini yanada oshirish va uni belgilash uchun ichki ishlar organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatining yangi maqsad va vazitfalarni belgilab olishga undaydi.

Strategiya doirasida ichki ishlar organlarining korrupsiyaga qarshi kurashish masalasida bundan keyin, kelgusida "nima qilamiz", degan savolga javob beriladi. Shu bilan birga korrupsiyaga qarshi kurashish masalasida mavjud muammolar hamda keng jamoatchilikning fikri o'rganilib ular bayon etilishi kerak.

Fikrimizcha, “O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2030-yilgacha mo‘ljallangan Milliy strategiyasi” doirasida Ichki ishlar organlarida korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Nazarimizda ichki ishlar organlarini chinakam xalqchil tizimga aylantirishda xodimlar o‘rtasida korrupsiyaga murossasizlikni shakllantirish muhim omil sanaladi. Ichki ishlar organlari xodimlari tomonidan qonunlarning to‘g‘ri va asosli qo‘llanilishi tizim obro‘cini oshiradi.

Tahlillar maishiy korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini takomillashtirish lozimligini ko‘rsatmoqda. “O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2030-yilgacha mo‘ljallangan Milliy strategiyasi” loyixasida “maishiy korrupsiyaning huquqiy tabiatini qonunchilik hujjatlarida aniq belgilash va shu bilan birga maishiy korrupsiyaga qarshi kurashishning axloqiy standartlari va qadriyatlarini rivojlantirish bo‘yicha maqsadli va aniq choralar ko‘riladi”, mazmunidagi band o‘z ifodasini topishi kerak.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: O‘zbekiston, 2021. – 427-б.
2. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 20.04.2021 йилдаги ЎРҚ-682-сон. <https://lex.uz/docs/5378966>.
3. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси (Ўзбекистон Республикасининг янги таҳрирдаги Конституцияси 2023 йил 30 апрель куни ўтказилган Ўзбекистон Республикаси референдумида умумхалқ овоз бериш орқали қабул қилинган). [Электрон манба]. URL: <https://lex.uz/docs/6445145>.
4. Ўзбекистон Республикасининг «Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида»ги Қонуни // [Электрон манба] URL: <https://lex.uz/docs/3088008>.
5. Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги Қонуни, 03.01.2017 йилдаги ЎРҚ-419-сон // <https://lex.uz/docs/3088008>.
6. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 5-сон, 62-модда.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5729-сонли Фармони // [Электрон манба] URL: <http://lex.uz/ru/docs/4355399>.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 6 июлдаги “Коррупцияга қарши курашиш фаолиятини самарали ташкил этишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-5177-сон Қарори [Электрон манба]. URL: <https://lex.uz/uz/docs/5495533>.
9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 27 ноябрдаги “Коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш ҳамда давлат органлари ва ташкилотлари фаолияти устидан жамоатчилик назорати тизими самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-200-сонли Фармони. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 28.11.2023 й., 06/23/200/0896-сон.



10. Ўзбекистон Республикасининг қонуни. Тезкор-қидирув фаолияти тўғрисида (25.12.2012, ЎРҚ-344-сон). – URL: <https://lex.uz/docs/2107763>.
11. <https://www.gazeta.uz/uz/2024/06/05/conflict-of-interest/>.
12. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 05.06.2024 йилдаги ЎРҚ-931-сон // <https://lex.uz/docs/6952742>.
13. <https://www.gazeta.uz/uz/2023/06/01/conflict-of-interest/>.
14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 2 апрелдаги ПҚ-5050-сон қарори // Электрон манба. <https://lex.uz/ru/docs/5353841>.
15. Алтухов С. А. Преступления сотрудников милиции (понятие, виды и особенности профилактики). СПб., 2000. С. 197; Колонтаевская И.Ф. Профессиональное образование кадров полиции за рубежом (педагогический аспект). М., 2000. С. 31.
16. Варыгин А.Н. Преступность сотрудников органов внутренних дел и проблемы воздействия на нее: Дисс.... докт. юрид. наук. Саратов. 2003. – С. 313.
17. Антикоррупционные реформы в Узбекистане. 4-й раунд мониторинга в рамках Стамбульского плана действий по борьбе с коррупцией. ОЭСР 2019, с. 28 ([https://www.oecd.org/corruption/acn/OECD-ACN-Uzbekistan-4th-Round\\_Monitoring-Report-2019-RUS.pdf](https://www.oecd.org/corruption/acn/OECD-ACN-Uzbekistan-4th-Round_Monitoring-Report-2019-RUS.pdf)).
18. <https://lex.uz/docs/5495533>.
19. <https://lex.uz/docs/5495533>.
20. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси ([www.lex.uz](http://www.lex.uz)), 2023 йил 21 январь.
21. Россия Федерацияси Жиноят кодексининг 289-моддаси // [http://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_10699/7cb5d9b7f75fd72853e0610988cc9f6fdd08802e/](http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699/7cb5d9b7f75fd72853e0610988cc9f6fdd08802e/); Беларус Жиноят кодексининг 429-моддаси // [https://kodeksy-by.com/ugolovnyj\\_kodeks\\_rb/429.htm](https://kodeksy-by.com/ugolovnyj_kodeks_rb/429.htm); Грузия Республикаси Жиноят кодексининг 337-моддаси // <https://matsne.gov.ge/ru/document/view/16426?publication=236>; Эстония Республикаси Жиноят кодексининг 1621-моддаси // [https://www.legislationline.org/download/id/6462/file/Estonia\\_CC\\_as\\_of\\_2002\\_ru.pdf](https://www.legislationline.org/download/id/6462/file/Estonia_CC_as_of_2002_ru.pdf); Қозоғистон Республикаси Жиноят кодексининг 364-моддасида // [https://online.zakon.kz/Document/?doc\\_id=31575252&pos=5304;-36#pos=5304;-36](https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31575252&pos=5304;-36#pos=5304;-36).
22. Электрон манба: [https://www.legifrance.gouv.fr/codes/section\\_lc/LEGIT-EXT000006070719/LEGISCTA000006136043/#LEGISCTA000006136043](https://www.legifrance.gouv.fr/codes/section_lc/LEGIT-EXT000006070719/LEGISCTA000006136043/#LEGISCTA000006136043).
23. [http://english.court.gov.cn/2015-12/01/content\\_22595464\\_34.htm](http://english.court.gov.cn/2015-12/01/content_22595464_34.htm).
24. <http://servicios.infoleg.gob.ar/infolegInternet/anexos/15000-19999/16546/texact.htm>.
25. [https://images.transparencycdn.org/images/2016\\_AssetDeclarationsInEgypt\\_EN.pdf](https://images.transparencycdn.org/images/2016_AssetDeclarationsInEgypt_EN.pdf)
26. United Nations Convention Against Corruption, United Nations, New York, p. 20 // Электрон манба: <https://www.unodc.org/unodc/en/treaties/CAC>.
27. Руководство для законодательных органов по осуществлению Конвенции Организации Объединенных Наций против коррупции. Второе исправленное и дополненное издание, Нью-Йорк, 2012 год, С. 99.